

“Saxovat va ko’mak” jamg’armasi mablag’larining yo’naltirilishi to’g’risida hisobot

2022-yil 1-yanvar holatiga “Saxovat va ko’mak” jamg’armalari hisob raqamlarida 2 mlrd. 253,4 mln. so’m qoldiq mablag’lari mavjud bo’lib, o’tgan to’qqiz oy davomida viloyat bo‘yicha “Mahalla” xayriya jamoat fondi huzuridagi “Saxovat va ko’mak” jamg’armasi hisob raqamlariga 20 mlrd. 782,2 mln. so’m mablag’ yig’ildi. O’tgan to’qqiz oy davomida Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari qarori asosida qariyb 34 ming 874 nafar oilalarga jami 20 mlrd. 73,1 mln. so’m mablag’ sarf etildi.

Jumladan, mahallalarda tashkil etilgan “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ga kirgan fuqarolarni moddiy va ma’naviy qo’llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. O’tgan to’qqiz oy davomida “Temir daftar”ga kiritilgan 8400 nafar fuqarolarni moddiy qo’llab quvvatlashga 5 mlrd. 399,1 mln. so’m mablag’ yo’naltirildi. “Saxovat va ko’mak” jamg’armasi mablag’lari “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlashda ham muhim moliyaviy manba bo’lib xizmat qilmoqda. Mazkur daftarga kirgan 865 nafardan ko’proq xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash uchun 420,4 mln. so’m mablag’ yo’naltirilgan.

Bundan tashqari, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga, ko’p farzandli oilalarga, nogironligi bo’lgan shaxslarga va yolg’iz qariyalar kabi ehtiyojmand oilalarning 25 609 nafariga 14 mlrd. 253,6 mln. so’m mablag’ yo’naltirildi.

2022-yil 1-oktyabr holatiga “Saxovat va ko’mak” jamg’armasi hisob raqamlarida viloyat bo‘yicha 2 mlrd. 962,5 mln. so’m pul mablag’lari mavjud. O’zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O’zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to’g’risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-73-sodn Qarori 8-ilovasi 20-bandiga muvofiq “Mahalla” xayriya jamoat fondi Respublika boshqaruvi tomonidan respublika miqyosida “Saxovat va ko’mak” jamg’armasi mablag’larini yo’naltirilishi yuzasidan hisoboti O’zbekiston 24 kanali orqali 2022-yil 20-apreldagi briiffingi davomida o’qib eshittirildi, shuningdek, respublika boshqaruvi rasmiy veb-sayti (<https://obfm.uz/uz>)da 4 marotaba jamg’arma mablag’laridan foydalanish yuzasidan hisobot joylashtirildi.

“Saxovat va ko’mak” jamg’armasidan kam ta’minlangan oilalarga mablag’ ajratish faqatgina xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining qarori bilan amalga oshirib kelinmoqda.

2022-10-25 09:45:16